



**NAVOIY VILOYATI KARMANA TUMANI HOKIMI  
F A R M O Y I S H I**

**Karmana 210605, "Talqoq" MFY, Tel: (79)-532-28-38, (79)-532-36-40, e-mail: karmana@nv.uz**

2022 йил 11 февраль

15-5-71-F/22

Кармана туман ҳокимилиги

**O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 22-apreldagi "Davlat xaridlari" to‘g‘risidagi №684-sonli qonuni va qonunosti hujjatlarning ijrosini ta‘minlash maqsadida Karmana tuman hokimligining byudjet va byudjetdan tashqari mablag’laridan samarali foydalanish to‘g‘risida**

1. Karmana tuman hokimligining byudjet va byudjetdan tashqari mablag’lari hisobidan asosiy vositalar hamda tovarlar (ishlar, xizmatlar) yetkazib beruvchilar (pudratchilar) bilan shartnomalar tuzishda eng maqbul taklifni aniqlashda ilovaga muvofiq komissiya tarkibi tasdiqlansin.

2. Tuman hokimining birinchi o‘rinbosari T.Urinov va komissiya a’zolariga elektron ravishda taqdim etilgan takliflarni belgilangan tartibda o’rganib chiqish, qaror va farmoyishlarni rasmiylashtirib borish yuklansin.

3. Bosh hisobchi M.Umarovga komissiya qarori asosida shartnomalar tuzilishini g’aznachilikdan ro‘yxatdan o’tkazilishini va oldindan to’lovlarni amalga oshirish hamda maxsulotlar qabul qilinganidan so’ng yakuniy to’lovlarni amalga oshirilishini nazorat qilish, asossiz debtorlik va kreditorlik qarzdorliklarni oldini olish vazifasi yuklatilsin.

Tuman hokimi



F.Umarov

Кармана туман хокимининг  
2022 йил 11 февралдаги  
15-5-71-F/22-сон фармойишига  
1-илова

**Tuman hokimligi xamda tovarlar (ishlar, xizmatlar) yetkazib beruvchilar  
(pudratchilar) bilan shartnomalar tuzishda va eng maqbul taklifni aniqlash  
komissiyasi**

**TARKIBI**

**F.Umarov** – Tuman hokimi, komissiya raisi.

**T.Urinov** – Tuman hokimining moliya-iqtisodiyot va kambag ‘allikni qisqartirish masalalari bo‘yicha birinchi o‘rinbosari, rais o‘rinbosari.

**Sh.Boltayev** – Tuman hokimi kapital qurilish, kommunikatsiyalarni rivojlantirish va obodonlashtirish bo‘yicha o‘rinbosari.

**M.Umarov** – Tuman hokimiligi bosh hisobchisi.

**K.Qurbanov** – Tuman hokimiligi xo‘jalik ishlari mudiri.

**Izoh:**

Tuman komissiyasi raisi yig‘ilishlarida uzrli sabablarga ko‘ra ishtirok eta olmaganida uning vazifalarini maxsus ishchi guruhi raisining o‘rinbosari bajaradi;

Tanlov komissiyalari a’zolari boshqa ishga o’tgan taqdirda maxsus ishchi guruhi tarkibiga ushbu lavozimga yangidan tayinlangan shaxs yoki tegishli funksiyalarni bajarish zimmasiga yuklatilgan shaxs kiritiladi;

Zarurat tug‘ilganda tanlov komissiyalari, boshqa manfaatdor idoralarning hududiy bo‘linmalaridan mutaxassislarni jalg qilish huquqiga ega.